# MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA HAYOTIY HARAKATLARDAGI MASHQLAR VA ULARNI O'RGATISH METODIKASI"

***Adiba O'razboyeva***
*Jizzax davlat pedagogika universiteti stajyor-o'qituvchi*
*orazboyevaadiba@gmail.com*

**Annotatsiya:** Maktabgacha tarbiya tizimi jarayoniga yangicha yondashish, bola tarbiyasidagi o`zbek xalqining milliy an'analari, qadriyatlair, xalq pedagogikasini ulkan tajribasi, o`ziga xos xususiyatlari, mintaqa iqlim sharoitlari, yosh bosqichlari, ularni anatomik – fiziologiq,psixologik – gigenik jihatlari, barcha ijobiy xususiyatlarning o`zlashtirilishini uyg`unlashtirish masalalari alohida o`rin egallaydi.

**Kalit so'zlar:**Ta'lim, tarbiya, maktabgacha, maktab, vatanparvar, ma'rifatparvar, sifat.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2022 yil 20 dekabr kuni Oliy Majlisga yo'llagan murojaatnomasida; **"Ta'lim sifatini oshirish Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'lidir. "Najot-ta'limda, najot-tarbiyada, najot-bilimda. Chunki, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi"** Ma'rifatparvar jadid bobolarimizning bu so'zlari deputat va senatorlarimiz, siyosiy partiyalar, mahalliy kengashlar, butun davlat apparati, keng jamoatchilikning amaliy harakatiga aylanishi kerak. Shu bois, maktabgacha ta'lim muassalarida ta'lim sifati,hamda jamiyatda o'qituvchi kasbining nufuzini oshirish, muallimlarning sharoitlarini yaxshilash 2023 yildagi eng asosiy vazifalarimizdan biri bo'ladi" deb takidlab o'tdilar.

Jismoniy tarbiya va sport sohasida pedagog kadrlar tizimini boshqarishga xos bo'lgan omillar, aynan jismoniy tarbiya va sport sohasida pedagog kadrlar tizimini boshqarishni turli usul, mexanizmlar orqali davlat tomonidan ishlab chiqilgan va belgilangan me'yoriy-huquqiy hujjatlar talablariga asoslanib jismoniy tarbiya va sport muassasalari rahbarlari tomonidan tartibga solish va samarali boshqarish ob'ektiv zaruratga aylantiradi. Jamiyatimizda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, aholining, ayniqsa yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish, sport musobaqalari orqali yoshlarda o'z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, mardlik va vatanparvarlik, ona Vatanga sadoqat tuyg'ularini kamol toptirish, shuningdek, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish ishlarini

tizimli tashkillashtirish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.[18]

Maktabgacha yoshdagi bolalarda hayotiy harakatlardagi mashqlar va ularni o'rgatish masalalari F.Nasriddinov, O.Rixsiyeva, K.Mahkamjonov, T.Usmonxodjayev, X.Meliyev va boshqa olimlar tomonidan o`rganilgan.

Olimlarimizdan T.Usmonxo`jayev, F.Xodjayev, T.Yunusov va R.Xolmuhaammedov hamda D.Sharipovlarning maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg`ulotlarni tashkil qilish yuzasidan bir qancha metodik ishlari mavjud. **O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, Prezident Sh.Mirziyoevning barkamol avlod tarbiyasiga doir fikr va g'oyalari, "Ilk va maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yilgan davlat talablari"(2018y.) "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi hamda sharq va g'arb mutafakkirlarining pedagogika, psixologiya sohasidagi ta'limotlari, pedagog va psixolog olimlarning bola tarbiyasi va oilaviy munosabatlar haqidagi fikrlari hamda ota-onalarning jamiyatda tutgan o'rni to'g'risida bildirgan g'oyalari.**

**Mashqlarda sog'lomlantirish vazifalarini** amalga oshirishga bolalarning har tomonlama harakat faoliyat yo'li bilan erishiladi. Ular organizmdagi barcha funksional jarayonni, uning optimal gigienik va chiniqdiruvchi sharoitlarda xayotiy faoliyatni kuchaytirishga yordam beradi.

**Ta'lim-tarbiyaviy vazifalar** mashqlar jarayonida bolaning ma'naviy-ahloqiy sifatlarini shakllantirish, jismoniy tarbiya va sport soxasiga oid ba'zi elementlar bilimlar va terminlarni ma'lum qilish, to'g'ri xarakat ko'nikmalari hamda jismoniy sifatlarni tarbiyalash yo'li bilan hal etiladi.

Mashqlar xushchaqchaq, intizomli, atrof-muhitda yaxshi xarakat qila oladigan, belgilangan vazifaga muvofiq tez va ishonch bilan, maqsadga yo'nalgan holla faoliyat kursata oladigan, shuningdek axloqiy sifatlar va ijodiylik namoyon eta oladigan kishilarni tarbiyalashta xizmat qiladi.

Jismoniy mashqlar ko'z, qish va baxor faslida binoda hamda ochiq havoda o'tkaziladi. Yoz fasli paytida barcha mashqlar (yomg'irli kunlardan tashqari) ochiq havoda jismoniy tarbiya maydonchasida o'tkaziladi.

---

[18] [18] 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.

Mashqning umumrivojlantiruvchi mashqlarni o'rgatish bilan olib boriladigan asosiy qismi davomiyligi kichik guruhlarda 15 daqiqadan 18 daqiqagacha, O'rta guruhlarda 20 daqiqadan 22 daqiqagacha, katta guruhlarda 25-28 daqiqa bo'ladi. Umumrivojlantiruvchi mashqlarsiz o'tkazilganda esa uning davomiyligi kichik guruhdarda 8-12 daqiqa, O'rta guruhdarda 12-15 daqiqa, katta guruhdarda 15-20 daqiqani tashkil etadi.

O`tkazilgan nazariy izlanishlar va eksperimental tadqiqotlar asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:




## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev SH.M. "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. – T.: "O'zbekiston", 2017 yil.

2. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.–T.: "O'zbekiston". – 2017 yil.

3. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirligining "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. Toshkent. 2022 yil 4 fevral

4. Abduvalievich, Abdullaev Rustamjon. "NECESSARY FORMATION OF COMPLEX COMPETENCE SAFETY OF TOURIST SERVICES DURING THE

DEVELOPMENT OF A STRUCTURAL-FUNCTIONAL MODEL." Science and Innovation 2.2 (2023): 261-264.

5. Abdullabdullaev, R. "BASES OF SCIENTIFIC AND TECHNOLOGICAL SUPPORT OF THE PROCESS OF FORMATION OF SPECIAL TOURIST KNOWLEDGE, ABILITIES AND SKILLS." Science and innovation 2.B3 (2023): 122-123.

6. Жураев, Вохиджон Мухаммедович. "СПОРЧИЛАРНИНГ ДАЪВОГАРЛИК ДАРАЖАСИ ВА ИРОДАВИЙ СИФАТЛАРИНИНГ ПСИХОЛГИК ХУСУСИЯТЛАРИ." Academic research in educational sciences 4.TMA Conference (2023): 894-900.

7. Abdullayev, Rustam. "The Process Of Quality Education-As A Mechanical Combination Of Teaching And Learning Processes." Procedia of Social Sciences and Humanities 4 (2022): 57-59.

8. Abdullayev, Rustam. "INDICATORS OF CRITERIA FOR EVALUATING THE EFFECTIVENESS OF FORENSIC SUPPORT FOR THE INSPECTION OF THE SCENE." ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В СОВРЕМЕННОЙ НАУКЕ. 2022.

9. Араббоев, К. Т., and Е. Я. Михайлова. "ОБОСНОВАНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ ФАКУЛЬТЕТА ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ ПОСРЕДСТВОМ ТЕХНОЛОГИЙ ИНТЕГРИРОВАННОГО МОДУЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ." Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi 7 (2023): 753-757.945825205